



FOLKLOR DISKURSINING GENDER ASPEKTI

Abduvahobova Mahina Azatovna,

PhD, docent

Uzbekistan State world language university,

English language faculty 2,

the head of the department

“Theoretical disciplines of English language 2”

Anotatsiya: *Folklor tushunchasiga izoh berar ekanmiz, 1987 yilda YuNESKO tomonidan tashkil etilgan Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish bo‘yicha xalqaro qo‘mita tomonidan taklif qilingan ta‘rifga yuzlanamiz: “Folklor- ijtimoiy an‘analarga yo‘naltirilgan jamoat va shaxslarning yaratish imkoniyati, ya‘ni jamoaning madaniy va ijtimoiy o‘ziga xosligi hisoblanadi. Folklor matnlaridagi madaniy-ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlar og‘zaki ravishda taqlid yoki boshqa usullar (til, adabiyot, musiqa, raqs, o‘yinlar, mifologiya, marosimlar, tikuvchilik, me‘morchilik) bilan yetkaziladi”.*

Kalit so‘zlar: *folklor diskursi; gender; janr; mifologik personajlar; arxetip.*

Bugungi kungi tadqiqotlarda “folklor diskursi” termini tez-tez uchrab turishiga qaramay, uning mukammal tavsifi hali hamon berilmagan. Bizning nazdimizda, folklor diskursi ijtimoiy-madaniy vaziyat, tarixiy sharoitlar bilan shartlangan jamoaviy nutq faoliyatining o‘ziga xos turidir. Ushbu nutq faoliyatining tarkibiy qismi- bu estetik jihatdan qayta ishlangan, jamoat ehtiyojlarini qondiradigan va jamiyatni barqarorlashtiradigan jamoaviy bilimlarni aks ettiradigan an‘anaviy matndir. Folklor diskursi maxsus ta‘limot bo‘lib, u inson faoliyatining turli sohalariga xizmat qiladigan bir qator kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Folklor diskursida kommunikantlar bir ijtimoiy hamjamiyat vakili sifatida harakat qiladi, jamoaviy tarkibda bir qator jinslar, maqomlar, kasbiy jihatdan aniqlangan guruhlar mavjud bo‘lib, ularning har biri kommunikativ vaziyatda belgilangan rolni bajaradi. Shunisi e‘tiborliki, folklor diskursida kommunikatorlar turli janrlarda turfa rollarni ijro etadilar, turli pozisiyalarni egallaydilar, masalan, asosan marosim janrlarida bir sosiumga mansub kommunikantlar o‘zaro teng bo‘lmagan faol mavqeni egallaydi, afsun janrida ham kommunikantlarning mavqei teng bo‘lmaydi, balki sakral bilimlarga ega bo‘lgan sehrigar g‘ayritabiiy kuchlar va adresat o‘rtasida vositachilik qilish orqali faol pozisiyani; adresat esa tabiiyki, yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmaslik oqibatida passiv mavqeni egallaydi [Pelipenko 2006, 385]. Har qanday jamiyat vakillari folklorni ongli ravishda milliy g‘oya manbai, deb hisoblaydi, uni saqlab qolish va targ‘ib qilish kerak bo‘lgan madaniy merosning tarkibiy qismi sifatida



tushunadi.

Folklor diskursining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan ma'lumotni turli xil usullar orqali olish mumkin, xususan, *kommunikantlar bilan suhbatlar, matnni tahlil qilish, psixolingvistik eksperiment*. Barcha holatlarda, avvalo, kommunikantlarning shaxsiyatiga murojaat qilinadi. An'anaviy va zamonaviy folklorshunoslikda folklor shaxsi matnlarda o'zini "boshqalar uchun" sifatida namoyon qiladi, jamoa nomidan gapiradi va jamoaviy an'analarga bo'ysinishni ta'minlaydi. Folklor diskursi shaxsiy va institusional nutqlarning murakkab aralashmasi bo'lganligi sababli uning ishtirokchilari ham jamoaviy va shaxsiy vazifalarni bajaradilar. Madaniy ifodalarning jonli to'plami bo'lgan folklor uzoq vaqtdan beri gender omilini o'rganish uchun unumdor hudud bo'lib xizmat qilgan. Folklor turli sotsium va jamiyatlarning gender me'yorlari, rollari va orzu-umidlarini tasvirlaydigan, antropologlarga o'tmish va hozirgi kunning asosiy madaniy tuzilmalari haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadigan quroldir.

An'ana va madaniy me'yorlarga asoslangan folklor ko'pincha jamiyatning gender rollarini aks ettiradi. Ushbu rollarni turli xil vositalar yordamida anglash mumkin:

Miflar va afsonalar: ular ko'pincha ijtimoiy rollarni aniqlaydilar: erkak qahramonlar qahramonlik qiladilar, ayol qahramonlar esa tarbiyachi yoki qayg'uga duchor bo'lgan qiz sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq qo'shiqlari va balladalari: ayollar ko'pincha stereotipik ayol rollarida va erkaklar esa faol, qat'iy rollarda tasvirlanadi.

Marosimlar va folklor udumlari: Bular ko'pincha turli jinslarni o'z ichiga oladi va har bir jinsga tayinlangan rollarni ijro etadilar.

Folklor ayollik va erkaklik kabi gender rollarining ma'lum arxetiplarini targ'ib qiladi. Qahramon kuchli erkak va go'zal, fazilatli ayol sifatida ko'plab madaniyat folklorida uchrovchi umumiy mavzulardir. Biroq, bu tushunchalar madaniyat va turli jamiyatlarda turlicha talqin etilib farqlanadi. Masalan, ingliz va o'zbek folklor jamiyatlarida qiyoslanganda quyidagi natijaga duch kelgan edik:

Erkaklar diskursida erkak qahramonlar	Erkaklar diskursida ayol qahramonlar	Ayollar diskursida erkak qahramonlar	Ayollar diskursida ayol qahramonlar
zukko, adolatli, jasur, qobil	Zukko, mehnatkash, uddaburon, xokisor	Jasur, madadkor, ta'minotchi	Haloskor, uddaburon, oqila, mehribon, mazluma
Zolim, tentak, ochko'z	Berahm, zolim, amazonka	Passiv, erka, zolim, boqimanda	Zolim, hasadgo'y, makkora

Folklorda hokimiyat dinamikasi va jins bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Dominant guruh ko'pincha ijtimoiy tuzilmalarni aks ettiruvchi hokimiyatga ega bo'ladi, masalan, erkaklar ko'pincha patriarxal jamiyatdagi tarixiy mavqeini aks ettiruvchi yetakchi, jangchi yoki bilim va ziyo tashuvchi sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, ayollar kuchni ko'pincha nozik yoki buzg'unchi usullarda, masalan, qiyinchiliklarni yengish uchun ayyorlik yoki donolikdan foydalanishadi.



Folklorda gender rollarining evolyutsiyon o'zgarishi

Vaqli/davr	Feminin	Maskulin
Qadimiy	Zukko, xokisor, mazluma	Faol, dominant

Xulosa qilib aytganda, folklorda gender jamiyat qadriyatlari, rollari va dinamikasini aks ettiruvchi boy siyrat bo'lib xizmat qiladi. U an'anaviy gender rollarini tasdiqlaydi, tanqid qiladi va ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida darhol aks ettiradi. Antropologlar uchun folklor zamon va makon bo'yicha madaniyat va jinsning o'zaro ta'siri haqida boy bilim manbai hisoblanadi.

Feministik nazariyalar va yondashuvlar, garchan folklorning tarbiyaviy intizom mezoni sifatida juda qimmatli bo'lsa-da, ularning ahamiyatini yaqin yaqindan e'tirof etila boshlandi. Folklorshunoslar turli madaniyatlar va kontekstlarda ayollar hayoti haqiqatlarini o'rganish uchun folklorshunoslarning e'tiboridan chetda qolgan soha va janrlarni o'rganib chiqdilar.

Erkak arxetipik obrazlari	Ayol arxetipik obrazlari
Pixie, Grindylow, Herne the Hunter, boggart, Brownie, gobelin, Jack Frost, ogre, hobgoblin, Jack frost, Thrummy cap, Merlin, Sandman, Jack o'Kent, Raw head and bloody bones, Old Nick, qirol Artur, Koyl, Uter Pendragon, Том Хикатрифт, Bevis Xempton'skiy; Uoriklik Gay, Dullahan	Jenny Greenteeth, Bloody Mary, Godiva, Peg Powler, Fairy Queen, Elder mother, Black Agnes, Godiva, Peg Powler, Bloody Mary, Mother Carey, Kalyax Ver, Gvillion, Glastig, Gvinevra, Igreyna, Morgauza, Tanterabogus, Banshee, Gvillionlar; Kineg; Ursula Sautxeyl ; Semlesberi jodugarlari, Pendl jodugarlari; Kalli Barri; Glashtig; loathly lady
Haydar kulti, Xizr, Ilyos, Qirq Chilton, Go'ro'g'li, Alpomish, devlar, Pahlavon Rustam, Kenja botir, Bektemir Botir, Qiron Botir, Alpomish, Qilich botir, Qilich Qora, Olmos botir, Shahzoda Salmon, Devbachcha, Xirsiddin polvon, Lo'nda polvon, Erkenja, Baltakay botir, Uch og'ayni botirlar, Shiroq, Uch og'ayni botirlar, Qironxon, Kuntug'mish, Avazxon, Xasanxon, Nurali, Jahongir, Murodxon, Rustamxon, Kenja botir, Alibek bilan Bolibek, Yusuf bilan Ahmad, Yakka Ahmad	Suvparilari, parilar, alvasti, Choymomo kulti, Bibi Seshanba kulti, Sust xotin kulti, Momo kulti, Yallimomo, yalmog'iz, ajina, Malikai Husnobod, Oysuluv, To'maris, Gulfaraq; Dono qiz, Donishmand ona, Tadbirli ayol, Davlatli kelin, Zumrad va Qimmat

Ingliz mifologik folklori personajlari tadqiq etilganida, ularda tabiat (suv va o'rmon) homiylari, shuningdek, "uy ruhlari" aniqlandi: *brownie*, *hobgoblin*, *uegg-et-ve-oo*,



killmoulis, silken, boggart, shovqinli elflar va arvohlar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz folklorida mavjud bo'lgan uy ruhlari haqidagi g'oyalarda bu mavjudotlar va ularning yashash joylari o'rtasida chambarchas bog'liqlik ma'lum ma'noda mavjud bo'lib, bu ingliz madaniyatining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi, chunki ushbu g'ayritabiiy mavjudotlar ingliz madaniyatining milliylik an'alariga intilish kabi xususiyatini aks ettiradi. Xalq og'zaki matnlarida uy ruhining mavjudligi uyning va uning egasining mavqeidan dalolat beradi, chunki bu mavjudotlar, ingliz folklor so'zlovchilari nuqtai nazaridan, faqat eski uylarda yashaydi va zodagon oilalarni afzal ko'radi. Ingliz mifologik diskursida uy ruhlarining olov va iliqlik (*killmoulis, hobgoblin*) bilan bog'lanishi, ularning uydagi farovonlik va totuvlik atmosferasining barqarorligi bilan bog'liq. Yuqorida qayd etilgan ingliz madaniyatida oila va oilaviy munosabatlarning past mavqei shundan dalolat beradiki, folklorida ingliz ruhlari yolg'iz va farzandsiz bo'lib chiqadi va ularda oilaviy munosabatlar haqida hech qanday tasavvur yo'q. Bolalarning farovonligi ularning ota-onalari hayotining ma'nosi emas, degan, ingliz g'oyalariga muvofiq, ingliz tilida uy ruhlari obrazlarida maskulinlik ustunlik qiladi.

Maishiy ruhlarning mavqei va folklor tashuvchilarning ularga bo'lgan munosabatiga ularga ajdodlar ruhi sifatida emas, balki xizmatkor sifatida munosabatda bo'lish katta ta'sir ko'rsatadi. Bu past maqomni ularning tashqi ko'rinishi haqidagi g'oyalar (*brownie*- jismoniy nogiron va darbadar kiyingan, *loathly lady*), haqoratli taxalluslar (*Brownie-Clod* - tom ma'noda "ahmoq") dalolat beradi.

Umuman olganda, folklor diskursida ma'budalarga, afsonaviy shaxslarga va haqiqiy yoki hayoliy avliyo hamda homiylarga tegishli bo'lgan antropomorf/ zoomorf folklor rollari ko'pincha ularni uy-ro'zg'or sohasi bilan bog'laydi yoki ularni tabiat, suv hamda qishloq xo'jaligining unumdorligi timsoli sifatida tasvirlaydi. O.Qayumovning fikricha, "tosh asri odamlarining hosildorlik kulti hamda suv kultiga taallukli mifik kdrashlarga borib takaladi. Paleolit davridayok suv xavzalariga siginish an'anasi mavjud bulgan. Animistik karashlar evolyusiyasi davomida dengiz, kul va daryolar tubi insonga yaxshilik kiluvchi ezgu ruxdar xamda odam xayotiga xavf solishi mumkin deb karalgan yovuz kuchlar makonidyr degan mifologik tasavvur kelib chikkan. Turli magik amallar vositasida suv ruxlarini tinchlantirishga uringanlar" [Qayumov 1999, 14b]. Suvni e'zozlash va uni makon kilgan ezgu ruxlar xomiyligiga ishonish asnosida xosildorlik kulti yuzaga kelgan. Natijada ikkala folklor madaniyatlarida tabiat va hosildorlik hamda ularning moddiylashgan shakllari kultlar ommalashgan.

Ular ijodkorlik va san'at, ip yigiruv, to'quv va hatto shahar qurilishini ham o'z obrazlari, gender rollari orqali ifodalashi mumkin., ularning ko'pchiligi badbashara holatda tasvirlansalar-da, biroq qilayotgan amallari didaktik-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ushbu rollardan boshqa, asosan ayollarning noaniq rollari ularni janjal, kasallik, yovuz sehr va urush holatlari bilan bog'laydi. Ayol folklor personajlar erkak qahramonlarga qaraganda juda badbashara, mahluq sifarlari bilan qo'rqitadigan imidj kasb etishi folklor etimologiyasi patriarxal ruhiyati singdirilganidan darak beradi,



chunki deyarli barcha ayol folklor-mifologik qahramonlar salbiy va badbashara qiyofada gavdalanadi. Ikkala madaniyat folkloristikasida erkak timsollari asosan homiylar, sahiy hamda jasur qahramonlar bo'lib, ayollar esa aksincha badbashara va makkoraligini tubdan segregatsiya qilinishi Sharqda dunyoning diaxron tasviri patriarxal-androtsentrik qarashlar orqali chizilganligi yaqqol ayon bo'ladi.

Folkloristikada yalmog'iz va jodugar obrazining juda ko'p hamda turfaligi obrazning tarixiy fantaziya va arxaik ona sifatidagi radikal qiyofasi ijtimoiy tuzilmadagi "ayol" sifatlarining bekor qilishdagi radikal harakat desa ham bo'ladi. Chunki uning bu qiyofasi fikrimizcha, ayol sub'ektining metaforik tasvirlarini qiyinlashtirish tiradi, ayol sifatleri haqidagi ijtimoiy munosabatlar va kollektiv tasavvurlarni buzadi. O'zbek folklor matnlarida yalmog'iz mifonimi ham ayol jinsiga mansub: *Qurg'ur yalmog'iz kampirning rusumi shunday ekan: har kuni yigitning tizzasiga boshini qo'yib, uning qonini so'rib yotarkan. Yalmog'iz biror kimsaning qonini so'rsa, besh-o'n kunda uni o'ldirarkan.*

Dastlab, "jodugar" so'zining ruscha invariant "ведьма" "bilish" va "ona" ikkita so'zning birlashuvidan kelib chiqqan, ya'ni. bilimdon ona. Natijada, biz jodugar ma'lum bilimga ega ayol ekanligini tushunamiz. Bundan tashqari, "bilish" so'zi ushbu jarayonning chuqurroq bosqichini - bu bilim bilan to'g'ri ishlash qobiliyatini o'z ichiga oladi [4]. Arxetip sifatida jodugarning tasviri ayol shaxsining eng instinktiv darajasini ifodalab, bilish qobiliyati tabiat haqidagi bilimlarga borib taqaladi. Jodugar shifobaxsh o'tlar haqida yashirin bilimga ega bo'lgan, tabiat va hayvonlar bilan qanday munosabatda bo'lishni biladigan va tabiiy ayollik kuchlarining xususiyatlarini biladigan ayol dir [2, 425]. Jodugarning arxetipik qiyofasi dunyo xalqlari ongida mustahkam yashaydi, afsonalar va rivoyatlar bu tasvirning hamma davrlarda mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu obraz juda ommabopligining sababi ruhshunoslarning fikricha, ayol ongsizligining qorong'u tubida jodugar tasvirining yashiringanligi bilan bog'liqdir. Totemistik an'analarga ko'ra, jodugar - bu g'ayrioddiy qobiliyatlarga ega bo'lgan, ammo o'z kuchiga ishongan ayol, uning afsunlari magik emas, balki tug'ma in'om yoki tabiat kuchlari orqali namoyon bo'ladi. U yaxshi yoki yomon xulq-atvorga ega bo'lishni o'zi tanlaydi.

Folklor mifologiyasi va qahramonlarning jamiyatdagi rollari ertak imperatrissalari, Keltlarning Budik va Irlandlarning qaroqchi malikasi Greys O'Malley, Uoriklik Gay, Merry, To'maris kabi ajoyib tarixiy va yarim tarixiy shaxslarni o'z ichiga oladi.

Asrlar davomida va turli madaniy kontekstlarda xalq og'zaki ijodi bolalar va o'smirlarga axloq va jamiyat uchun maqbul xulq-atvor normalarini singdirib kelgan. Xususan, folklor diskursi kichin yoshdagilarga erkak va ayollar o'zini an'ana va urf odatlarga ko'ra qanday tutishi kerakligi haqidagi ideallarni targ'ib qiladi. Sharqda "Aftidan, onasi unga allalar kuylamagan" yoki "Ertak eshitib kattalar tarbiyasini olibdi" degan tushunchalar bejizdan ommalashmagan. Adabiyot Chunki xalq og'zaki ijodi bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalash muammolarini hal etishda beqiyos yordam berishini hech kim inkor qilmagan. Yozuvdan, qiroatdan savodi yetarli bo'lmagan ajdodlarimiz tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan folklor diskursini avloddan-avlodga yetkazib kelgan.



Ularning asosiy manbalari qahramonlarning jasorati haqidagi qisqa hikoyalar, adolatsizlikka qarshi kurashgan yoshlarning baxtsiz fojiali sevgisi haqidagi hikoyalar, tabiat kuchlariga qarshi kurashda namoyon bo'lgan xalq tasavvurining sog'lom elementlari bo'lishi mumkin. Ularga mazmunan vatanparvarlik, o'z maqsadiga erishish yo'lida hamjihatlik va matonatga da'vat qilish xususiyatlari singib ketgan. Shu bilan birga, folklor diskursi ayollar tomonidan bag'rikenglik, vazminlik, sevgi va mehr-oqibat, erkaklar tomonidan esa - qat'iyat, jasorat, mas'uliyat va boshqa ko'p narsalarni o'z ichiga olgan gender rollarini uzatishda chuqur ma'noga ega ekanligi barchamizga aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qayumov O. O'zbek folklorida pari obrazi (genezisi va poetikasi).- filol.fan.nomzodi daajasini olish uchun diss.avtoreferati.-1999.-25b.
2. Королев К. Энциклопедия сверхъестественных существ – М.: Мидгард, Эксмо, 2006 – 720 с.
3. Пелипенко А.А. Проблемы изучения культурного наследия в условиях глобализации, 2006.- С. 382–404.
4. Этимологический словарь русского языка / под ред. А.В. Семенова – М.: ЮНБЕС, 2003.